

IDROK HAQIDA TUSHUNCHA VA UNING TASNIFI.

*Andijon davlat pedagogika insitituti “Pedagogika psixalogiya” kafedrasida
o‘qituvchisi: **Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna.***

*Andijon davlat pedagogika instituti umumiy psixalogiya fani o‘qituvchisi
Alisherova Zulfiya Tolibjanovna.*

*Andijon davlat pedagogika instituti Amaliy matematika yo‘nalishi talabalari:
Yusufbekova Ruxshona Nurullo qizi
G‘apporva Gulsanam Baxromjon qizi.*

Annotatsiya. Maqola idrokning turli xususiyatlari, uning sub'ektiv tabiati va individning psixologik xususiyatlariga bog'liqligi haqida ham ma'lumot beradi. Bundan tashqari, idrokning to'g'ri va samarali bo'lishi uchun tajriba, madaniyat va atrof-muhitning o'rni muhokama qilinadi. Maqola, shuningdek, idrokni chuqur o'rganish orqali insonning kognitiv jarayonlarini va ular bilan bog'liq muammolarni tushunishga yordam beradi. Maqola idrokning ilmiy o'rganishdagi ahamiyatini va uning kundalik hayotda qo'llanilish imkoniyatlarini ta'kidlaydi. Bu maqola psixologiya va nevrologiya sohalarida ishlovchi mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilar uchun foydali manba bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar. Ong, chaqmoq, Se'zgi, murakkab, Idrok, perseptiv, reseptiv, tafakkur, hukm, aktivlik, Diqqat, barqaror, I.Pavlov ta'limoti, nerv-fiziologik, Appersepsiya, Idrokning konstantligi, Ilyuziya va gallyusinasiya, klassifikatsiyasida,

Kirish. Shaxs tevarak – atrofdagi narsa va hodisalarning faqat ayrim hossalarni ongda aks ettirib qolmaydi, balki ularning barcha xossalarni birgalikda bir butun holda ham aks ettiradi. Se'zgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa –hodisalarning obrazlarining kishi ongida bir butun holda aks ettirilishi idrok deyiladi. Masalan: uyni idrok qilish, gulni idrok qilish, odamni idrok qilish va boshqalar. Sezgi va idrok bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Kishi narsa – hodisalarning ayrim xossalarni sezadi, uni bir butun holda idrok qiladi. Chunki, narsa va hodisa bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Odam narsalarni idrok qilayotganda uning ayrim xossalarni sezadi. Masalan: chaqmoq qandni idrok qilinadi, uning shirinligini seziladi. Quyoshni idrok qilinadi, uning issiqligini seziladi va boshqalar.

1. Idrokning murakkabligi. Sezgilarda oddiy elementar psixik jarayondir. Idrok esa sezgilarga qaraganda murakkab psixik jarayon hisoblanadi. Idrokning murakkabligi quyidagilarda ifodalangan. Har bir idrok tarkibida ayni vaqtda bir necha sezgi kiradi. Masalan, qovunni idrok qilish. Bunda quyidagi sezgilarda ishtirok etadi qovunning shakli va rangini aks ettiruvchi ko'rish sezgisi, hidini aks ettiruvchi hid sezgisi, Mazasini aks ettiruvchi ta'm sezgisi, harakatni aks ettiruvchi teri sezgisi va boshqalar.

Bu sezgilar taxlil yordamida ajralib olinadi va idrokning reseptiv tomonini tashkil etadi. Ular ishtirokida narsaning barcha xossalari bir butun holda aks ettiriladi. Bu esa idrokning perseptiv tomonini tashkil etadi.

2. Idrok tarkibiga tafakkur va nutq faoliyati kiradi. Agar idrok qilinayotgan narsa yoki hodisa biz uchun yangi notanish bo'lsa, darrov fikr yuritish faoliyati boshlanadi va "bu nima" degan savol tug'uladi. Shuningdek, har bir idrok hukm shaklida ifodalanadi. Ya'ni narsa yoki hodisaga nom beriladi, uni so'z bilan aytiladi mavjud tushuncha doirasiga kiritadi. Masalan: "bu gul", "bu mashina", "bu kitob" va boshqalar.

3. Idrok jarayoniga his-tuyg'ular idrok qilinayotgan narsa hodisalar to'g'risida o'tmishda tug'ilgan taassurotlar va fikrlardan hamda ayni paytdagi idrok jarayonidan vujudga kelishi mumkin. His-tuyg'ular idrokning aktivlik darajasini kuchaytiradi, uning mazmunini jonli, erkin qiladi.

4. Idrok jarayonida diqqat g'oyat katta ahamiyatga ega. Diqqat idrokning aktivligini oshiradi va uning mukamal bo'lishiga xizmat qiladi. Diqqatsiz hech narsani idrok qilish mumkin emas. Narsa- hodisalarning to'liq va raso idrok qilish uchun shu narsa hodisa ular ustida diqqat kuchli va barqaror turishi zarur.

I. Pavlov ta'limotiga ko'ra, tevarak atrofdagi narsa hodisalarning reseptorlarga ta'sir etish tufayli bosh miya katta yarim sharlari po'stida hosil bo'ladigan muvaqqat nerv bog'lanishlari idrokning fiziologik asosini tashkil etadi. Masalan, student butun bir daryo jarayonida idrok qilinganda o'qituvchini ko'radi, uni nutqini tinglaydi, yozadi. Shuning uchun biz ayrim tovushlarni emas, butun so'z va iboralarni idrok qilamiz. Demak idrokning nerv-fiziologik asosida ikkinchi signal tizimining muvaqqat nerv bog'lanish yotadi.

Appersepsiya.

Idrok obrazlari ularni vujudga keltiruvchi ob'ektlar va shaxsning o'zida bo'lgan bir qancha omillar bilan taqozo etiladi. Kishi psixik hayoti va shaxsiy xususiyatlarining idrokka ta'siri va unda aks etuvchi mazmunini appersepsiya deyilar. Kishilar ayni bir narsa yoki hodisani yoshlari, ma'lumotlari, turmush tajribalari, kasblar jihatidan turlicha idrok qiladilar. Kishining qaysi sohaga doir bilim va tajribasi qanchalik boy bo'lsa, uning shu sohadagi idroki xam to'liq chuqur va sermazmun bo'ladi.

Idrokning konstantligi.

Idrok qilinadigan obyektlar idrok qiluvchiga nisbatan ko'p xil sharoitlarga ega. Ularning turar joyi, masofasi, fazodagi holati, yoritilganlik darajasi cheksiz har xil bo'ladi. Lekin predmetlarni shakli, xajmi, Narsa hodisalarni idrok qilish sharoiti o'zgarsayu, ulardan hosil bo'lgan obrazlarning o'z holicha saqlanib qolishi idrokning konstantligi deyiladi. Ko'rish idroklarida, masofa, rang shakli, hajm konstantliklari ro'y beradi. Konstantlik hodisasida odam narsalarni ko'z ro'parasiga tushgan suratiga aynan muvofiq ko'rmaydi, balki ular haqiqatdan mavjud bo'lsa shunday ko'radi.

Ilyuziya va gallyusinasiya.

Bazi hollarda narsalar noto'g'ri idrok qilinadi. Narsalarni ana shunday noto'g'ri idrok qilinishi selluziya deyiladi. Masalan: Aristotel ilyuziyatsiyasida Sergeley aynan bir hil bo'lgan 1 kg tarozi toshi 1 kg og'irroq idrok qilinadi. Sellyuziya hodisasi ayniqsa geometric figuralarni idrok qilishda ko'proq uchraydi. Idrok qilib turgan shaxs psixikasida ro'y beradigan o'zgarishlar ham illuziya hodisasini paydo qilishi mumkin.

Idrok klassifikatsiyasida.

Ma'lumki, idrok sezgi organlari asosida vujudga keladi. Har bir idrok jarayonida bir necha sezgi organi ishtirok etishi mumkin. Lekin ulardan biri eng muhim o'rinda turadi. Idrok jarayoni qaysi sezgi organining yetakchilik o'ynashiga qarab idrokni bir necha turlarga ajratish mumkin. Masalan: ko'rish idroki, eshitishidroki, hid idroki, tam idroki va boshqalar. Bundan tashqari yana idrokning quyidagi turlari ham mavjud :

- 1.Fazoni idrok qilish
- 2.Vaqtini idrok qilish
- 2.Harakatni idrok qilish.

Xulosa qilib aytganda, idrok — bu insonning atrof-muhitdan kelayotgan ma'lumotlarni sezgi organlari orqali qabul qilish va tushunish jarayonidir. Idrokning shakllanishi, faqat biologik jihat bilan cheklanmay, balki psixologik, madaniy va ijtimoiy omillar bilan ham bog'liqdir. Idrokning har bir insonga xos bo'lishi, uning shaxsiy tajribasi, hissiyotlari va dunyoqarashiga bog'liq. Shu sababli, idrokni tushunish va to'g'ri shakllantirish, insonlarning yanada samarali qarorlar qabul qilishiga, o'zaro anglashuvni kuchaytirishga va jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.I.A.Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.1998yil.
- 2.A.V.Petrovskiy Umumiy psixalogiya. T.1992 yil.
- 3.yosh psixalogiyasi va pedagogic psixalogiyadan praktikum.T.1991 yil.
- 4.E.G.G'oziyev Tafakkur psixalogiyasi. T.1990 yil.